



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI KATTAQO'RG'ON SHAHAR HOKIMINING QARORI

140800, Kattaqo'rg'on sh., Amir Temur ko'chasi, 4-uy. Tel.: (66) 4561001, 4561589, e-mail: kattaqorgan.sh@exat.uz, info@kattakurgan.uz

2021 йил «16» июл

10-7-106-Q/21

Каттақўрғон шаҳар  
хокимлиги

## Samarqand viloyati hokimining 2021-yil 12-iyuldagи 5-7-0-Q/21-sonli “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagи “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5177-sonli qarori” ijrosini ta'minlash haqida”gi qarori to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagи “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6257-sonli Farmoniga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishini samarali tashkil etish maqsadida

### QAROR QILAMAN:

1. Samarqand viloyati hokimining 2021-yil 12-iyuldagи 5-7-0-Q/21-sonli “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagи “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5177-sonli qarori ijrosini ta'minlash haqida”gi qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan 2021-yil 1-sentyabrdan boshlab davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlarda (keyingi o'rinnlarda — davlat organlari va tashkilotlari) ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etilayotganligi;

2021-yil 1-oktyabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'liga qo'yilishi;

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlari davlat organlari va tashkilotlari

tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) bilan birgalikda o‘tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi, ularni lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishilishi belgilab qo‘ylganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin;

3. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari B.Sayipov tegishli tashkilot va muassasalar bilan birgalikda 2021-yil 1-dekabrdan boshlab xarid komissiyasining ma’lumotlar haqqoniyligini tekshirish va ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish vakolatlari bekor qilinayotganligi yuzasidan belgilangan tartibga qat’iy rioya etsinlar.

4. Shahar hokimining o‘rinbosari (T.Ishbekov), shahar Moliya bo‘limi (F.Sadriddinov) qurilish sohasida shaffoflik va qonuniylikni ta’minalash, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida 2021-yil 1-oktyabrga qadar:

budget va unga tenglashtirilgan mablag‘lar hamda davlat organlari va tashkilotlari mablag‘lari hisobidan qurilish-pudrat shartnomasi uchun o‘tkaziladigan tender (tanlash)ni “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimining ma’lumot almashinuvini ta’milagan holda davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida elektron tarzda o‘tkazish amaliyotini yo‘lga qo‘yish;

qurilish va loyiha tashkilotlari reytingi hamda tender savdolaridagi baholash me’zonlari va metodikasini qayta ko‘rib chiqib, ularning ochiqligini ta’minalash hamda qurilish tashkilotlari toifalari va narx bo‘yicha taklifni baholash mexanizmini joriy qilish;

elektron tender tizimida ma’lumotlarning haqqoniyligini avtomatik ravishda tekshirish va baholash mexanizmini ishga tushirish yuzasidan takliflarni viloyat hokimligiga taqdim etsin.

5. Samarcand viloyati hokimining mazkur qarori bilan:

viloyat Transport boshqarmasi (I.Xamraev) tegishli boshqarma va idoralar bilan birgalikda

yo‘l qurilishi va ekspluatatsiyasi sohasiga shaffoflik standartlarini joriy qilish maqsadida 2022-yil 1-yanvarga qadar avtomobil yo‘llari sohasiga tegishli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan “SHAFFOF YO‘L” onlayn axborot platformasini ishga tushirish;

ushbu platforma doirasida avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash obyektlarining interaktiv onlayn-xaritasi ishlab chiqish;

keyingi yilda quriladigan va ta’mirlanadigan yo‘l uchastkalarini aniqlash va ularni xaritaga joylash hamda buni jamoatchilikka taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Shahar hokimining o‘rinbosarlari (B.Sayipov, T.Ishbekov, A.Ibragimov, F.Raximova, I.Mamatov), shahar hokimligi tashkiliy-nazorat guruhi rahbari (X.Sadullayev) 2022-yil 1-yanvardan boshlab “halollik vaksinasii” tamoyili asosida davlat xizmatchilarini muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvi va odob-axloq qoidalari bo‘yicha maxsus o‘quv kurslarda o‘qitish tizimini joriy etilishi yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ko‘maklashsinlar.

Bunda ushbu tizim doirasida:

davlat xizmatchilarini o‘qitish shahar darajasida shahar adliya bo‘limida, viloyat darajasida hududiy oliy ta’lim muassasalarida, Davlat boshqaruvi akademiyasining Samarqand filialida

amalga oshirilishi;

maxsus elektron o‘quv platformasi ishga tushirilib, u orqali davlat xizmatchilarini masofadan turib o‘qitish hamda xususiy sektor vakillari va aholining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi bilimlarini oshirishni yo‘lga qo‘yilishi inobatga olinsin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosarlari (B.Sayipov, T.Ishbekov, A.Ibragimov, F.Raximova, I.Mamatov) zimmalariga yuklatilsin

**Шахар ҳокими**



**ALIMOVA G. Z.**